G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI

Nematov Inatillo Ubaydullayevich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'limda ta'lim sifati va uning mohiyati yoritilgan. Xususan, ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha turli yondoshuvlar keltirilgan, mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilingan, ta'lim sifatiga berilgan ta'riflar o'rganilgan, "ta'lim sifati" tushunchasi bo'yicha turli qarashlar tahlili havola qilingan, oliy ta'limda ta'lim sifatini ta'minlashga oid ilmiy tadqiqot ish natijalari va tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim sifati, ta'lim xizmatlari bozori, oliy ta'limda marketing, xalqaro miqyosda sifatga erishish, xalqaro hamkorlik, mehnat bozori, o'quv jarayoni, malaka talabalari, o'quv rejalar, o'quv dasturlari, ta'lim tizimi.

Abstract: This article describes the quality of education in higher education and its essence. In particular, different approaches to ensuring the quality of education are given, the literature on the subject is analyzed, the definitions given to the quality of education are studied, the analysis of different views on the concept of "quality of education" is referred, the results of scientific research and analyzes are presented on ensuring the quality of education in higher education.

Key words: higher education, quality of education, market of educational services, marketing in higher education, achieving quality on an international scale, international cooperation, labor market, educational process, skilled students, educational plans, educational programs, educational system.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы качества высшего образования и его сущность. В частности, приведены различные подходы к обеспечению качества образования, анализирована литература по данной теме, изучаются определения качества образования, сделан анализ различных взглядов на понятие "качество образования". Представлены результаты научных исследований и анализов по обеспечению качества образования в высших образовательных учреждениях.

Ключевые слова: высшее образование, качество образования, рынок образовательных услуг, маркетинг в высшем образовании, достижение качества в международном масштабе, международное сотрудничество, рынок труда, образовательный процесс, квалифицированные студенты, образовательные планы, образовательные программы, система образования.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyoda oliy ta'limga misli ko'rilmagan talab yuzaga kelmoqda. Oliy ta'limning keng ko'lamlı diversifikatsiyasi, uning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy taraqqiyot, yosh avlodga yangi ko'nikma, bilim va g'oyalarni o'zlashtirishi uchun muhim bo'lgan kelajakni yaratishdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Oliy ta'lim hamma joyda moliyalashtirish, teng huquqli sharoitlar yaratish kabi sohalarida jiddiy muammolar va qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Oliy ta'lim o'qitish, kasbiy rivojlanishga ko'maklashish, ta'limni aniq ko'nikmalarga yo'naltirish, o'qitish, tadqiqot va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va qo'llab-quvvatlash, dasturlarning muvofiqligini ta'minlash, bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishi, samarali hamkorlik shartnomalarini o'rnatish va xalqaro imtiyozlardan adolatli foydalanishni ta'minlashi kerak.

Shu bilan birga, oliy ta'lim yangi bilimlarni yaratish, boshqarish, tarqatish, foydalanish va nazorat qilishni osonlashtiradigan texnologiyalar bilan bog'liq yangi ufqlarni ochmoqda.

"Oliy ta'lim bo'yicha Jahon deklaratsiyasi 1998 yilda YuNESKO tomonidan tashkil etilgan oliy ta'lim bo'yicha Butunjahon konferensiyasida qabul qilingan "XXI asr" hujjatida quyidagi ta'rif berilgan: "Oliy ta'lim sifati ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uning barcha funksiyalari va faoliyatini qamrab olishi kerak: o'quv va o'quv dasturlari, tadqiqot va stipendiyalar, xodimlar, talabalar, binolar, inshootlar, jihozlar, jamoat xizmati va akademik muhit. Sifatni yaxshilash uchun ichki o'z-o'zini baholash, shuningdek, mustaqil, ixtisoslashgan xalqaro ekspertlar tomonidan imkon qadar shaffof tarzda tashqi baholash muhim ahamiyatga ega. Mustaqil milliy hokimiyat organlari tashkil etilishi va xalqaro e'tirofga sazovor bo'lgan qiyosiy sifat standartlari o'rnatilishi kerak. Xilma-xillikni hisobga olish



va bir xillikni oldini olish uchun muayyan institutsional, milliy va mintaqaviy kontekstlarga e'tibor qaratish lozim. Manfaatdor tomonlar institutsional baholash jarayonining ajralmas ishtirokchilari bo'lishi kerak" [1].

Bugungi kunda ta'lim ham bozor munosabatlarining ajralmas bir bo'g'iniga aylanib ulgurdi. Bunda ta'lim bir vaqtning o'zida ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchisi (sotuvchisi), inson kapitalining xaridori, shuningdek, jamiyatning bozor munosabatlari tomon yo'naltiruvchi davlat instituti sifatida shakllanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi natijasida ta'lim xizmatlari bozori bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida rivojlanmoqda. Hozirgi kunda turli mulkchilikka asoslangan ta'lim muassasalari ta'lim xizmatlari bozoriga kirib kelmoqda. Natijada raqobatni vujudga keltiradigan ta'lim xizmatlari taklif etilmoqda.

Shu sababli, mamlakatimiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim xizmatlari bozorini jamiyatning oshib borayotgan talablarini hamda ilmiy-texnik taraqqiyotni hisobga olgan holda rivojlantirish bo'yicha bir qator ijobiy hamda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- ta'lim xizmatlarini ko'rsatish jarayonlari va ular bilan bog'liq texnologiyalar o'zaro muvofiqlashmoqda;
- ta'lim xizmatlari bo'yicha olib boriladigan narx siyosati ta'lim xizmatlari bozoridagi holat, raqobat muhiti va real talab hajmi ta'siri asosida shakllantirilmoqda;
- ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilarning aniq maqsadli guruhlariga yo'naltirilgan potensial segmentlar bilan ishlash yo'lga qo'yilmoqda;
- bozorni o'rganish yo'nalishi bo'yicha ham, shuningdek, ta'lim xizmatlari bozori sharoitlarini tadqiq qilish va prognozlash sohasida ham amaliy ishlar olib borilmoqda;
- oliy ta'lim muassasalarida marketing bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishda bir qator omillar muhim ahamiyatga ega. Bunda ta'lim sifatini ta'minlash asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sifati oliy ta'lim tizimi samaradorligining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, har qanday davlat taraqqiyotining muvaffaqiyati unga bog'liq. "Sifat" atamasini talqin qilishning turli tumanligi uning ko'p qirraliligi va subyektivligi, uni tadqiq qilish muammolari konteksti, tadqiqot pozitsiyasi va boshqalar bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim sifati muammolariga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uning yuzlab ta'riflari mavjud. Keling, ulardan bir nechtasini sanab o'tamiz.

Umuman olganda, ta'lim sifati tushunchasini iqtisodiy, boshqaruv, ijtimoiy, tashkiliy, texnik, texnologik, psixologik, huquqiy, ekologik, shaxsiy, iqtisodiy, tizimli va boshqa pozitsiyalardan ko'rib chiqadigan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Masalan, ta'lim sifati bo'yicha eng ko'p o'rnatilgan qarashlarning batafsil tahlili N. P. Puchkov [2]. U o'z ishida ta'lim sifatini ta'minlash muammosini hal qilish uchun 5 ta sifat paradigmasini (falsafiy, mexanik, kibernetik, tizimli va informatsion) belgilaydi.

Hozirgi vaqtda kibernetik, tizimli va axborot paradigmalari elementlarini birlashtirgan va TQM (Total Quality Management) – Umumiy sifat menejmenti [3] konsepsiyasiga asoslangan neoklassik sifat paradigmasi keng tarqaldi. Ushbu konsepsiyaning rivojlanishining kelib chiqishida zamonaviy sifat menejmenti gurulari –E. Deming [4], D. Juran [5], F. Krosbi [6] va boshqalarning ilmiy qarashlari yotadi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda Boloniya jarayoni uning ishtirokchilarining milliy ta'lim tizimlarini isloh qilishga hissa qo'shdi va ta'lim sifati bo'yicha yangi munozaralarni jonlantirdi. Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi (EUA) tomonidan Yevropa universitetlarida sifat madaniyatini rivojlantirish loyihasi amalga oshirish jarayonida sifat sohasidagi tadqiqotlarni tizimlashtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi [7]. Natijada, sifatning 8 ta konsepsiyasini aks ettiruvchi ta'lim sifatining quyidagi ta'riflari taklif qilindi:

- Sifat maqsadga muvofiqlik sifatida;
- Sifat tasdiqlash sifatida (nuqsonlar mavjud emas);
- Sifat iste'molchi qoniqishi sifatida;
- Sifat ustunlik sifatida;
- Sifat qiymat sifatida;
- Sifat transformatsiya sifatida;
- Sifat modernizatsiya sifatida;
- Sifat nazorat vositasi sifatida.



M. M. Potashnik ta'lim sifati, birinchi navbatda, o'quv jarayonining sifati, deb hisoblaydi, bu ikki komponentning birligi orqali ifodalanishi mumkin - protsedura va natija ^[8].

V. P. Panasyuk ta'lim sifati bitiruvchining ta'lim xususiyatlarining yig'indisi sifatida belgilaydi ^[9].

Xorijiy tadqiqotchilarning ta'lim sifati aniqlashning turli yondashuvlari ko'pincha mijozlar ehtiyojini qondirish, maqsadga muvofiqlik yoki mukammallik kabi g'oyalarga asoslanadi.

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, ta'lim sifatiga maqsadlar va natijalar o'rtasidagi bog'liqlik, maqsadlarga erishish o'lchovi deb ta'rif berish mumkin.

Yanada aniqlik kiritadigan bo'lsak, ta'lim sifati ma'lum bir dastur, muayyan ta'lim talablari darajasiga mutaxassisning bilim va tayyorgarligining muvofiqlik darajasi deyishimiz mumkin.

Bundan tashqari ta'lim sifatiga mijozlarning so'rovlari, talablari va umidlarining bajarilishini anglatuvchi maqsadga muvofiqlik sifatida, shuningdek talabalar uchun imkoniyatlar yaratish yoki yangi bilimlarni rivojlantirishdagi o'zgarishlarni bildiruvchi transformatsiya jarayoni sifatida qarash mumkin.

Shunday qilib, "ta'lim sifati" tushunchasini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud. Shu bilan birga, ta'lim sifati aniqlab bo'lmaydi yoki u juda umumiy bo'lib chiqadi, degan nuqtayi nazarlar ham mavjud.

"Sifat" atamasini talqin qilishning yuqori o'zgaruvchanligi asosan ushbu toifaning ko'p o'lchovliligi va subyektivligi, uni tadqiq qilish muammolari konteksti, tadqiqot pozitsiyasi va boshqalar bilan izohlanadi.

Oliy ta'lim sifati ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u o'quv jarayoni va o'quv dasturlari, ilmiy tadqiqot va stipendiyalar, xodimlar, talabalar, binolar, jihozlar, jamoat xizmati va o'quv muhiti. Sifatni yaxshilash uchun ichki o'z-o'zini baholash va imkon qadar shaffof tarzda mustaqil, ixtisoslashgan xalqaro ekspertlar tomonidan tashqi baholash muhim ahamiyatga ega. Mustaqil milliy hokimiyat organlari tashkil etilishi va xalqaro e'tirofga sazovor bo'lgan qiyosiy sifat standartlari o'rnatilishi kerak. Xilma-xillikni hisobga olish va homogenizatsiyaga yo'l qo'ymaslik uchun muayyan institutsional, milliy va mintaqaviy kontekstlarga e'tibor qaratish lozim. Manfaatdor tomonlar institutsional baholash jarayonining ajralmas ishtirokchilari bo'lishi kerak.

Sifat oliy ta'lim xalqaro miqyosga ega bo'lishini ham talab qiladi: bilim almashish, interfaol tarmoqlar yaratish, o'qituvchilar va talabalarning harakatchanligi, milliy madaniy qadriyatlar va shart-sharoitlarni hisobga olgan holda xalqaro ilmiy loyihalar.

Milliy, mintaqaviy hamda xalqaro miqyosda sifatga erishish va ta'minlash uchun alohida tarkibiy qismlar alohida ahamiyatga ega, xususan: oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar va xodimlarni sinchkovlik bilan tanlash, ularning malakasini doimiy ravishda oshirish, xususan, tegishli ta'lim muassasalarini kengaytirish orqali malaka oshirish sohasidagi dasturlar, shu jumladan o'qitish va o'qitish usullari, ularning mamlakatlar o'rtasida, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida va ikkinchi va ish dunyosi o'rtasidagi harakatchanligi, shuningdek, talabalarning mamlakatlar ichida va mamlakatlar o'rtasida harakatchanligi va boshq.

Yangi axborot texnologiyalari bilim va ko'nikmalarni egallashga ta'siri bilan bu jarayonda muhim vosita hisoblanadi.

TAHLILLAR VA ILMIY TADQIQOT NATIJALARI

So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda.

Hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.

Jumladan, oliy ta'lim muassasalari soni so'nggi olti yilda 77 tadan 213 taga yetdi, talabalar soni 260 mingdan 1,4 mln. nafarga yetdi. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 42 foizga yetkazildi.

2017-yilga qadar birorta ham nodavlat oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmagan. Sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va xususiy sektorni jalb qilish orqali 67 ta yangi nodavlat oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi, xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni 7 tadan 30 taga, davlat oliy ta'lim muassasalari 70 tadan 116 taga yetdi.

2020/2021-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni to'liq kredit-modul tizimiga o'tkazildi (asos sifatida Yevropaning ECTS — European Credit Transfer and Accumulation System tizimi qabul qilindi).

Yangi standartlar va malaka talablari asosida kredit-modul tizimiga mos ravishda 351 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va 409 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalar hamda 3,6 mingdan ziyod o'quv dasturlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari huzurida ta'lim sohalari bo'yicha 6 ta Malakani baholash markazlari tashkil etildi.

2021-yil 24-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oliy ta'lim tizimini tub ijobiy o'zgarishlarga olib keladigan oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy, akademik va tashkiliy-boshqaruvda mustaqillik



berish borasidagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi hamda “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar oliy ta’lim muassasalariga bir qator yengilliklar berish bilan birga, professor-o’qituvchilar va talabalarga ham katta qulaylik yaratib berdi.

Akademik mustaqillik berilishi natijasida oliy ta’lim muassasalari o’quv rejalari, o’quv dasturlari, malaka talablarini, ta’lim shaklini belgilash, o’qish davomiyligini, o’z hisobidan grant ajratib doktoranturaga kvotaga qo’shimcha qabul qilish, magistratura uchun sirtqi, masofaviy va kechki ta’limni joriy etish, o’z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o’quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish, ta’lim sifatini ichki nazorat qilish, kontrakt qiymatini, mahalliy va xorijiy professor-o’qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish, xorijiy o’quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar, o’quv qo’llanmalarni to’g’ridan to’g’ri xarid qilish kabi bir qator muhim bo’lgan vazifalarni o’zi hal qilish imkoniyatiga ega bo’ldi.

Shuningdek, 41 ta oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilib, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, moddiy-texnika bazani mustahkamlash, kontrakt asosidagi qabul parametrlarini belgilashda mustaqil hal etish imkoniyati yaratildi.

O’zbekiston Respublikasi davlat oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlash maqsadida Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limlari tashkil etilgan bo’lib, ularning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallarida kadrlar tayyorlash sifati nazorat qilish va monitoringi olib borish;
- talabalar bilimlarining davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini hamda talabalarining fanlarni o’zlashtirish darajasi o’rganib borish va tahlil qilish;
- professor-o’qituvchilarning dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qilish;
- oliy ta’lim muassasasini ichki baholashdan o’tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalarini bo’yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko’rish;
- o’quv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to’g’ri tashkil etilganligi va HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o’rganib borish (jumladan, axborot tizimiga ma’lumotlarni o’z vaqtida va to’liq hajmda kiritilganligi, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi);
- malaka talabalarini, o’quv reja va o’quv dasturlarining mehnat bozori talablariga mos bo’lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qilish;
- o’quv mashg’ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlar sifatini nazorati talab darajasida yo’lga qo’yilganligini o’rganib borish;
- dars o’tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalb etilganligini o’rganib borish;
- talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta’minlanganligi bo’yicha ko’rilgan choralar samaradorligini aniqlash;
- professor-o’qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o’rganish;
- professor-o’qituvchilarni ishga olish jarayonlarini shaffofligi, ularga o’quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini tahlil qilish;
- axborot-resurs markazining holati, fanlar bo’yicha darsliklarning mavjudligi, talabalarga yaratilgan sharoitlarni o’rganib borish va rahbariyatga takliflar kiritish;
- mustaqil ta’limni talab darajasida tashkil etilishini o’rganish va tahlil qilish (yo’riqnoma yoki uslubiy ko’rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta’limni tashkil etish uchun talablarni qo’yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta’minlash);
- oliy ta’lim muassasalarida plagiatga qarshi dasturlarni joriy etilishini ta’minlash (jumladan, akademik halollik tamoyillarini joriy etish va ko’chirmachilikka qarshi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish)
- vazirlikning topshirig’iga muvofiq, boshqa oliy ta’lim muassasalari faoliyatini o’rganishda ishtirok etish.

Mazkur vazifalarni to’liq bajarilishini ta’minlash maqsadida ta’lim sifatini aniqlash imkoniyatini beruvchi indikatorlar ham ishlab chiqilgan.



Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan:

- *birinchidan*, aksariyat oliy ta'lim muassasalaridagi o'qitishni tashkil etish jarayoni bugungi kun talablariga to'liq javob bera olmayapti;
- *ikkinchidan*, professor-o'qituvchilarning faoliyatini, bilimini va pedagogik ko'nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;
- *uchinchidan*, oliy ta'lim muassasasida magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlar, o'quv adabiyotlarini, mustaqil ish va boshqa talabalar bilimini baholash bilan bog'liq ishlarda ko'chirmachilik holatlari saqlanib qolmoqda;
- *to'rtinchidan*, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, shuningdek, kadrlar tayyorlash sifati monitoringini tashkil etish yetarli yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan;
- *beshinchidan*, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o'rnatilmaganligi ushbu sohada ko'plab muammolarning, eng avvalo, korruptsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda;
- *to'rtinchidan*, oliy ta'lim muassasalarining, jumladan ularning rahbarlarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o'zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi yetarli emas, ularning akademik faolligi hanuzgacha qoniqarsiz bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu muammolarni hal etish uchun ta'lim sifatini oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar va sabablarni aniqlash hamda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish istiqbollari va "o'sish nuqtalari"ni o'rganish;

- oliy ta'lim muassasalarida ko'chirmachilikni oldini olish va akademik halollikni ta'minlash maqsadida antiplagiat dasturini joriy etish;
- ta'lim sifatini xalqaro talabalar asosida ta'minlash maqsadida Yevropa hududida oliy ta'lim sifatini ta'minlash standartlari va yo'riqnomalarini oliy ta'lim muassasalariga joriy etish;
- oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati monitoringini amalga oshirish bo'yicha me'yorlarni belgilash va oliy ta'lim muassasalari tomonidan kadrlar sifatini monitoringini yo'lga qo'yish;
- oliy ta'lim muassasalarida yuqori ta'lim sifatini ta'minlash yuzasidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, bu borada ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish lozim.

Zamonaviy dunyoda oliy ma'lumot martaba va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biridir. Biroq oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash uchun muayyan chora-tadbirlar va vositalar zarur. Ularni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ta'lim sifatini ta'minlashning birinchi bosqichi mehnat bozori va fan yutuqlarining zamonaviy talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iborat. Dastur muvozanatli bo'lishi va nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga olishi muhimdir.

Ta'lim sifatini kafolatlash uchun talabalar bilimini muntazam ravishda baholashni o'tkazish zarur. Buni imtihonlar, testlar, amaliy ishlar va bilimlarni nazorat qilishning boshqa shakllari orqali amalga oshirish mumkin. Nazoratning ushbu shakllari obyektiv bo'lishi va dasturning murakkablik darajasiga mos kelishi muhimdir.

Ta'lim sifatini ta'minlashning yana bir muhim jihati pedagogik kadrlarning malakasidir. O'qituvchilar nafaqat yuqori malakali va tajribali bo'lishlari, balki doimiy o'rganishga, bilim va malakalarini oshirishga tayyor bo'lishlari kerak.

Ta'lim sifatini oshirish uchun, shuningdek, ta'lim sharoitlarining mavjudligi va qulayligini ta'minlash kerak. Bunga zamonaviy jihozlar, qulay o'quv xonalari, kutubxonalar va muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan boshqa resurslarning mavjudligi kiradi.

Ta'lim sifatini ta'minlashda talabalarining fikrini hisobga olish, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish muhimdir. Bu so'rovlar, fikr-mulohazalar va boshqa aloqa shakllari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, ta'lim sifatini ta'minlashning muhim jihati ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Bu talabalarga tegishli bilimlarni olish va real muammolarni hal qilishda ishtirok etish,



shuningdek, o'qituvchilarning malakasini oshirish, turli sohalardagi yetakchi mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etish imkonini beradi.

Yana bir muhim jihat xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali talabalar va o'qituvchilar almashinuvini amalga oshirishdir. Bu talabalarga xalqaro muhitda o'qish va ishlash tajribasiga ega bo'lish, dunyoqarashini kengaytirish va malakasini oshirish, xalqaro loyihalar va tadqiqotlarda ishtirok etish imkonini beradi.

Va nihoyat, iqtidorli va istiqbolli talabalarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish muhimdir. Buni stipendiyalar, grantlar, tanlovlar va almashinuv dasturlarida ishtirok etish imkoniyatini taqdim etish, shuningdek, qo'shimcha kurslar va seminarlar tashkil etish orqali amalga oshirish mumkin.

Umuman olganda, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash o'quv dasturini ishlab chiqishdan tortib, iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlashgacha bo'lgan turli jarayonlarni qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash barcha manfaatdor tomonlarning ishtirokini talab qiluvchi murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Vaholanki, birgalikdagi sa'y-harakatlar bilangina talabalar hamda mehnat bozorining zamonaviy talab va ehtiyojlariga javob beradigan yuqori darajadagi ta'lim sifatini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Всемирная декларация о высшем образовании для XXI века: подходы и практические меры [Электронный ресурс]. – URL: <https://www.conventions.ru/int/12556> (дата обращения: 28.12.2023).
2. Пучков Н.П. Формирование системы обеспечения качества подготовки специалиста в условиях технического вуза: дис... докт. пед. наук: – М.: РГБ, 2005. – 392 с.
3. Каланова Ш.М., Бишимбаев В.К. Тотальный менеджмент качества в высшем образовании: Учебное пособие – практико-ориентированная монография. – Астана: Издательство “Фолиант”, 2006. – 476 с.
4. Деминг Э. Выход из кризиса. – Тверь: Альба, 1994. – 498 с.
5. Джуран Д. Все о качестве: Зарубежный опыт. Выпуск 2. – М., 1993.
6. Crosby Philip B. Quality Without Tears. – Mc Graus Hill, Singapore Dale, 1984. – R. 18–23.
7. 24. Developing an Internal Quality Culture in European Universities. // Report on the Quality Culture Project 2002-2003. – EUA, 2005. – R. 50.
8. Поташник М.М. Управление качеством образования: Практико-ориентированная монография и методическое пособие. – М.: Педагогическое общество России, 2006. – 448 с.
9. Панасюк В.П. Системное управление качеством образования в школе. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2000. – 239 с.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.